

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
PEDAGOGIKA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.T.Xalikova	
Sportchilarda milliy mafkuraviy bilim va malakalarni shakllantirish	94
R.Z.Raxmonova	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning suggestiv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari	98
M.R.Umurzakova	
Maktabdan tashqari pedagogik jarayonlarni takomillashtirish mexanizmlari	103
B.A.Umarov	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va malakaviy amaliyotni tashkil etish bosqichlari.....	107
S.B.Shermuhammadova	
Mustaqil o'qish tushunchasining mazmuni va ta'limdagi ahamiyati.....	111
T.Y.Bakirov	
Stereometriyani o'qitishda tasvirli masalalardan foydalanish imkoniyatlar	115



UO'K: 37.041.378.096.811.111

MUSTAQIL O'QISH TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA TA'LIMDAGI AHAMIYATI**СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ****THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF INDEPENDENT LEARNING AND ITS SIGNIFICANCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS****Shermuhammadova Sevinchxon Bahodirjonovna**

Farg'ona davlat universiteti filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili bakalavriat yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada mustaqil o'qish tushunchasining mazmuni, metodik asoslari va ta'lim tizimidagi o'rni atroflicha tahlil qilinadi. Xususan, mavzuga oid xorijiy, MDH davlatlari va mahalliy metodist olimlarining yondashuvlari asosida mustaqil o'qishning nazariy shakllanishi, pedagogik-madaniy asoslari va kompetensiyaviy talqinlari qiyosiy tarzda yoritilgan. Mustaqil o'qish zamonaviy ta'limning muhim komponenti bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida rivojlantirish, o'z-o'zini nazorat qilish va doimiy uzluksiz ravishda ta'limga tayyorlashga xizmat qiladi.

Аннотация

В данной статье подробно анализируются содержание понятия «самостоятельное обучение», его методологические основы и роль в системе образования. В частности, на основе подходов зарубежных, стран СНГ и отечественных методистов раскрываются теоретические основы формирования самостоятельного обучения, его педагогико-культурные принципы и компетентностные интерпретации в сравнительном аспекте. Самостоятельное обучение рассматривается как важнейший компонент современного образования, способствующий развитию личности обучающегося, формированию навыков самоконтроля и подготовке к постоянному непрерывному обучению.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the concept of independent learning, its methodological foundations, and its role in the education system. In particular, the theoretical formation of independent learning, its pedagogical and cultural foundations, and competence-based interpretations are examined in a comparative perspective based on the approaches of foreign, CIS, and local methodologists. Independent learning is regarded as a key component of modern education, contributing to the development of learners' personalities, fostering self-regulation, and preparing them for continuous lifelong learning.

Kalit so'zlar: mustaqil o'qish, o'quvchi faolligi, learner autonomy, self-directed learning, refleksiya, kompetensiya, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, активность обучающегося, автономия обучающегося, самоуправляемое обучение, рефлексия, компетентность, личностно-ориентированное обучение.

Key words: independent learning, learner activity, learner autonomy, self-directed learning, reflection, competence, learner-centered education.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchi/talaba shaxsining faol ishtirokiga asoslanmoqda. An'anaviy bilim berish usulidan farqli ravishda, bugungi kunda bilim olishda o'quvchi/talabaning mustaqil fikrlashi, o'zlashtirish strategiyalarini ongli tanlashi va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida faol subyektga aylanishi zaruratga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, kuzatish mumkinki, mustaqil o'qish tushunchasi pedagogika, psixologiya, lingvistika va didaktika doirasida turlicha talqin qilinib kelinmoqda. Mazkur maqolada mustaqil o'qish tushunchaning shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati xorijiy, mintaqaviy va mahalliy ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi.

ADABIYAOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqolada tavsifiy, qiyosiy va kontseptual-tahliliy metodlardan foydalanildi. Xorijiy nazariyalar (H.Holek, Little, Knowles, Dewey), MDH olimlari (Verbitskiy, Serikov, Khutorskoy) va

PEDAGOGIKA

o'zbekistonlik mutaxassislar (Hoshimov, G'ofurov, Ruzmatova) tomonidan ilgari surilgan g'oyalar qiyosiy kontekstda tahlil qilindi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va reflektiv o'qitish nazariyasi asosida tushunchaning ko'p qirrali mohiyati ochib berildi.

Mustaqil o'qish tushunchasi dastlab g'arbda, ayniqsa, til o'rganish va doimiy uzluksiz ravishda ta'lim konsepsiyasi doirasida shakllanganligini kuzatish mumkin. Fransuz metodist olimi Henri Holec mustaqil ta'lim tushunchasini "o'quvchining o'z o'rganish jarayoni uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi" deb ta'riflaydi. Ma'lumki, Henri Holec til o'rgatish metodikasi va o'quvchi avtonomiyasi (learner autonomy) sohasida asosiy nazariyalarni ishlab chiqqan va mustaqil o'rganish (self-directed learning) tushunchasini ta'limga tatbiq etgan ilk nazariyotchilardan biri xisoblanadi. Uning 1981-yilda nashr etilgan "Autonomy and Foreign Language Learning" (Til o'rganishda mustaqillik) asari bu sohadagi eng muhim manbalardan biri bo'lib, asar orqali Holec "o'quvchining o'z o'rganish jarayoni uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi" sifatida ta'riflaydi [1. 31]

Irlandiyalik metodist olimi David Little "learner autonomy" (O'quvchi mustaqilligi), ya'ni o'quvchining o'z-o'zini boshqaruvchi, reflektiv va ongli o'rganuvchi sifatida shakllanishi haqidagi nazariyani rivojlantiradi va o'z tadqiqotlarida Henri Holecning asosiy g'oyalarini kengaytirib, mustaqil o'qishni shunchaki pedagogik yondashuv emas, balki o'quvchining shaxsiy, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishini ta'minlovchi faoliyat sifatida izohlaydi [2. 24].

Malkolm Knowles – amerikalik olim bo'lib, u andragogika (kattalar ta'limi nazariyasi) asoschisi sifatida tanilgan. U "self-directed learning" (mustaqil o'rganish) konsepsiyasini chuqur ishlab chiqqan va uni ayniqsa kattalar uchun tabiiy va samarali o'quv yondashuvi sifatida asoslagan. Knowlesning eng mashhur asari – "Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers" ("Mustaqil o'rganish: O'rganuvchilar va ustozlar uchun qo'llanma") bo'lib, unda u quyidagi asosiy fikrlarni ilgari suradi:

- o'rganuvchi o'z o'qishining tashabbuskor subyekti bo'lishi kerak;
- o'quv jarayoni shaxsiy ehtiyoj, tajriba va hayotiy vazifalarga asoslanishi zarur;
- o'qituvchi – murabbiy va maslahat beruvchi rolini bajaradi;

Mustaqil o'rganish – umrbod o'qish (lifelong learning) konsepsiyasining asosi hisoblanadi [3. 116].

Ko'rinadiki, Malkolm Knowles o'quvchi/talabalarning mustaqil ta'limini kattalar ta'limiga xos yondashuv sifatida tavsiflaydi.

John Devey – amerikalik faylasuf, pedagog va psixolog bo'lib, progressiv ta'lim falsafasi asoschilaridan biridir. Deveyning ilmiy faoliyati asosan tajriba asosidagi ta'lim, demokratik maktab muhiti va faoliyatga asoslangan o'rganish (learning by doing) g'oyalari bilan bog'liq.

Uning eng muhim asari "Democracy and Education" (Demokratiya va ta'lim) bo'lib, unda mustaqil o'qishni faqat bilim olish vositasi emas, balki insonning jamiyatda faol, erkin va tanqidiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur pedagogik jarayon sifatida asoslaydi [5.207]. Dewey yondashuvining asosiy jihatlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- ta'lim – bu jamiyatdagi tajribalarni almashish vositasidir;
- o'quvchi faqat tayyor bilimni o'zlashtiruvchi emas, balki faol kashfiyotchi bo'lishi kerak;
- mustaqil o'qish tajriba, muammo yechimi va tanqidiy tahlil orqali shakllanadi;

o'qituvchi – jamiyatning ijtimoiy o'zgarishlariga moslashishga yordam beradigan yo'naltiruvchidir [5.211].

MDH davlatlarida mustaqil o'qish tushunchasiga bo'lgan qarashlar psixologik, pedagogik va kontekstual yondashuvlar bilan boyitilganligini ko'rish mumkin. Rus metodist olimi A.A.Verbitskiy "kontekstual ta'lim" (контекстное обучение) nazariyasining asoschisi hisoblanadi. Uning ilmiy yondashuvi o'quv jarayonini real hayotiy kontekstlar bilan bog'lashga asoslanadi.

Verbitskiyning nazariy qarashlarini mustaqil o'qish kontekstli muammolarni hal qilish orqali shakllanishi, o'quvchi faqat bilim egallovchi emas, balki uni real muhitda qo'llashni o'rganadigan faol shaxsligi, o'qituvchi faoliyatni tashkil etuvchi hamkor sifatida ishtirok etishi singarilarda ko'rish mumkin [6.62].

Verbitskiyga ko'ra, mustaqil o'qish shunchaki bilim olish emas, balki o'quvchining real hayotga mos strategiyalarni ishlab chiqishi, ularni muayyan kontekstda qo'llashi va o'z faoliyatining

natijasini tahlil qilishi orqali shakllanadi. U buni “ta’limning faol-kontekstual modeli” deb ataydi [6.63].

Rus metodist olimi V.V.Serikov shaxsga yo’naltirilgan (personality-oriented) ta’lim nazariyasini rivojlantirishda muhim iz qoldirgan. U shaxsiy o’quv traektoriyasini yaratish, uzviy sub’ektivlik va reflektiv kompetensiyalarga asoslangan pedagogik yondashuvni ilgari surgan.

Serikovning asosiy ilmiy yondashuvi quyidagicha izohlanadi:

u “vazifa-dialog-o’yinga” asoslangan metodologiyani taklif etadi, bu o’quvchilar o’zlarining ma’noli faoliyati orqali bilimsizlikni bartaraf etishga yo’naltiriladi.

Uning fikricha, ta’lim shaxsning individual xususiyatlari – qiziqishlari, ehtiyojlari, tajribalari asosida shakllantirilishi kerak. Serikov bu yondashuvni psixopedagogik o’qitish modeliga integratsiyalaydi. U shuningdek, ta’lim jarayonini subyekt-subyekt interaktivligi (o’qituvchi va o’quvchi hamkorlikda faoliyat yuritadi) orqali tashkil qilishni qo’llab-quvvatlaydi.

Serikov ta’limni faqat bilim uzatish emas, balki o’quvchining shaxsiy va ijodiy salohiyatini ro’yobga chiqaruvchi kontekstual hamkorlik deb hisoblaydi. Uning yondashuvi O’zbekiston ta’lim tizimida ham talabalarni mustaqil fikrlash va faol ta’limga o’rgatishda foydali metodologik zamin yaratadi [7.176].

Rus metodist olimi A.V.Khutorskoy shaxsga yo’naltirilgan ta’lim va kompetensiyaga asoslangan pedagogik paradigmalar sohasida muhim ilmiy iz qoldirganligini e’tirof etish mumkin. U kalit kompetensiyalar (key competences) modelini ishlab chiqqan bo’lib, bu nazariya zamonaviy ta’lim kontseptlarini ya’ni, metakognitiv, kommunikativ va shaxsiy yondashuvlarni birlashtiradi.

Khutorskoy yondashuvining asosiy jihatlari:

- kalit kompetensiyalar konsepsiyasi: u shaxsga faqat bilim berish emas, balki “hayotiy vaziyatlarda faoliyat yuritish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikmalar”ni shakllantirishni o’rgatadi;

- shaxsga yo’naltirilganlik: o’quv jarayonida o’quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari, ijtimoiy va madaniy kontekstlari hisobga olinadi;

- reflektiv va ijtimoiy komponentlar: kompetensiyalarni shakllantirish faqat kognitiv bilimdan iborat emas, ijtimoiy va axloqiy ko’nikmalar, refleksiya, hamkorlik orqali to’liq bo’ladi [8.59].

O’zbekiston ta’lim tizimida mustaqil o’qish masalasi nafaqat ta’lim siyosati, balki chet tilini o’qitish metodikasida ham dolzarb yo’nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bu boradagi tadqiqotlar talabani mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faol subyekt sifatida shakllanishi hamda ta’lim jarayonida o’zini namoyon eta olishi bilan uzviy bog’liq. Jumladan, G.Musaxanova mustaqil o’qishni o’quvchining fikrlash faoliyatini faollashtiruvchi va uni ijtimoiy faol subyekt sifatida shakllantiruvchi omil sifatida talqin etadi [9.32]. Sh.Aripova esa mazkur jarayonni interfaol metodlar – klaster, insert, portfoliolar orqali takomillashtirishni taklif etadi hamda o’z tadqiqotida mustaqil o’qish kompetensiyasini baholash indikatorlari, diagnostika usullari va reflektiv strategiyalar tizimini ishlab chiqadi [10.42]. D.Sarimsakova esa ingliz tili ta’limida mustaqil o’qish orqali talabalar soziolingvistik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalarini ilgari suradi va uni amaliy jihatdan asoslab beradi [11.23].

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko’rsatadiki, mustaqil o’qish tushunchasi o’quvchining shaxsiy, reflektiv va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ko’p qirrali metodik va pedagogik kategoriya hisoblanadi. Xorijiy yondashuvlarda bu tushuncha ko’proq metakognitsiya, avtonomiya va tanqidiy fikrlash bilan bog’liq bo’lsa, MDH yondashuvlarida psixopedagogik asoslar, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim va faoliyat metodologiyasi muhim o’rin tutadi. O’zbekistonda esa bu nazariyalar mahalliy ehtiyoj, ta’lim siyosati va metodik tajriba bilan uyg’unlashtirilib, o’ziga xos yondashuv shakllantirilgan.

XULOSA

Mustaqil o’qish zamonaviy ta’limning ajralmas tarkibiy qismi bo’lib, o’quvchining faolligi, refleksiyasi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Uning xorijiy, mintaqaviy va milliy talqinlari o’zaro uyg’unlikda pedagogik metodlarni takomillashtirish, shaxsiylashtirilgan ta’limni joriy etish va raqamli texnologiyalar asosida mustaqil o’qish muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yondashuvlar asosida amaliy platformalar, o’quv materiallari va baholash vositalarini yaratish zarurati mavjudligini ko’rish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Holec H. *Autonomy and Foreign Language Learning*. – New York: Council of Europe, 1981. – 53 p.
2. Little D. *Learner Autonomy: Definitions, Issues and Problems*. Dublin: Authentik, 1991. – 62 p.
3. Knowles M. S. *Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers*. New York: Cambridge Books. – 135 p.
4. Candy P. C. *Self-Direction for Lifelong Learning*. San Francisco: Jossey-Bass. – 567 p.
5. Dewey J. *Democracy and Education*. – Copyright The Pennsylvania State University, 2001. – 368 p.
6. Вербицкий А.А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения: Материалы к четвертому заседанию методологического семинара 16 ноября 2004 г. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 84 с.
7. Сериков В.В. Образование и личность. Теория и практика проектирования педагогических систем. – М.: Издательская корпорация «Логос», 1999. – 272 с.
8. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностноориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58-64.
9. Мусаханова Г. Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантириш: филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 138 с.
10. Арипова Ш. Инглиз тилини ўқитишда талабаларнинг мустақил таълим олиш компетенциясини ривожлантиришнинг методологик асослари: филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 150 с.
11. Саримсакова Д. Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг инглиз тилида социолингвистик компетенциясини ривожлантириш технологияси: филол. фан. б. фалс. д-ри (PhD)... дисс. автореф. – Наманган, 2022. – 23 с.